

Pedagogical Aspects Of Forming The Education Of Musical Culture In Youth Students

Fayzullayev Ermat Majidovich,

Senior Lecturer, Jizzakh State Pedagogical University, Ph.D.

One of the main tasks of musical education is to form a modern musical culture. In order to play modern music, one must know, be able to listen to, and perceive it, and at the same time master modern performance techniques. In this regard, the responsibility of teachers is very high, they must not only teach what they know, but also be well versed in the trends and ideological directions of modern music. A teacher-musician must also be a performer. The theory of education separated from live music makes no sense.

Talaba-Yoshlarda Musiqiy Madaniyat Tarbiyasini Shakllantirishning Pedagogik Jihatlar

Musiqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri zamonaviy musiqa uquvini shakllantirishdan iboratdir. Zamonaviy musiqani ijro etish uchun uni bilish, tinglay bila olish, idrok etish lozim va ayni paytda hozirgi zamon ijro usullarini egallash kerak. Bu o'rinda muallimlarning mas'uliyati juda baland bo'lib, ular nafaqat o'zlari bilgan narsalarni o'rgatishlari, balki zamonaviy musiqaning oqimlari va g'oyaviy yo'nalishlarini yaxshi bilishlari lozim. Pedagog-musiqachi ijrochi ham bo'lishi kerak. Jonli musiqadan ajralib qolgan ta'lim nazariyasi xech qanday ma'no kasb etmaydi.

Har bir inson bolaligidan boshlab san'at og'ushida yashaydi. Uning qulog'iga kiradigan birinchi san'at namunasi ona allasidir. Ona allasi esa dunyodagi barcha xalqlarning eng ajoyib va mumtoz asari, asrlar osha qadri oshadigan, insoniyat yashar ekan, har bir davrda ham aziz bo'lib qoladigan bebaho qo'shiqdirki, buning sehrini bilmagan odamning o'zi yo'q. Insonni go'dakligidayoq san'atning sehrli olamiga ilk mehrini uyg'otadigan va umrbod unga oshno qilib qo'yadigan ham ana shu ona allasidir. Shunday ekan, bolada go'dakligidayoq nish ura boshlagan bu ezgulikni ulg'aygan sari kuchaytira borish kerak bo'ladi.

Olima F.Qosimovanning tadqiqotida musiqaning o'ziga xos jihatlar, musiqa sohasida an'anaviylik va novatorlikning o'zaro ta'siri ko'rib chiqilgan. Dissertasiyada shaxsni ma'naviy rivojlantirishda uni har bir ijtimoiy guruhning xususiyatlarini va umuman jamiyatning manfaatlarini inobatga olgan holda musiqa san'ati vositalari bilan tarbiyalashning butun tizimiga kompleks yondashish lozimligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, badiiy madaniyat elementlarining, jumladan musiqa elementlarining o'zaro ta'siri jarayonida an'anaviy musiqa madaniyati shaxsni insonparvarlashtirishning asosi bo'lib maydonga chiqadi, ya'ni insonning o'zi qadriyat ekanligini, qadriyatlar tizimining o'zgarmasligini anglashga imkon beradi.

Tadqiqotchi M.Abdukarimovning ilmiy ishida xalq ustalarining tanbur, sato, setor va boshqa musiqa asboblari yasash jarayonlari hamda ijrochilik an'analari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ustozlar-ustolar, sozanda va xonandalar to'g'risida ma'lumotlar beriladi, ularning repertuarlaridan namunalar keltiriladi.

Xalq ustalarining musiqiy asboblari yasash jarayonlari, metr, o'lchov va akustik dastgohlar vositasida pardalar joylashuvi, ular orasidagi tovush qatorlarning xususiyatlari yoritiladi, ijrochilik maktablari va ijro etiladigan asarlar haqida ma'lumot beriladi.

Abdurahmon Jomiy (1414-1492) inson kamolotida musiqaning ham o'z o'zni borligiga alohida e'tibor beradi. Alloma «Musiq haqida risola» asarini yaratar ekan, o'z o'tmishdoshlarining musiqiy tarbiya haqidagi qarashlarini rivojlantiradi.

Avvalo, olim bu asarida an'anaga ko'ra musiqaning kelib chiqishi, ohanglar haqida qimmatli fikrlar bildiradi, maqomlarga tavsif beradi, musiqa asboblari haqida ma'lumotlar keltiradi. Muhimi, musiqaning kishi ruhiyatiga ta'siri to'g'risidagi fikrdir. U musiqaning ba'zi kuylari insonda ko'tarinki ruh paydo qilsa, ba'zilar insonda ijodiy ruh paydo qiladi, deydi. A.Jomiy o'z risolasida Abu Nasr Forobiyning ko'p jildlik «Musiqa haqida katta kitob» asaridagi g'oyalarni yanada rivojlantirdi, musiqiy tovushlarning o'zaro ohangdoshlik (ta'lif) va noohangdoshlik (manofarat) nuqtai nazaridan o'rganuvchi, yangi kuy yaratish uchun ular orasidagi oraliq (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakterladi. Musiqa, uning fikriga ko'ra, insonga eng yuqori ma'naviy oziq beradigan mukammal go'zal tovushlar haqidagi fandir. Bu fan insonlarga xizmat qilishi, ularning hayotini bezashi zarur.

Bu asar bir qarashda musiqa nazariyasiga oid bo'lsada, unda musiqaning inson ruhiga ta'siri, ya'ni shaxsni shakllantirishning psixologik jihatlarni ochib beruvchi ilmiy manba sifatida qimmatlidir.

Bastakorlar – og'zaki an'ana uslubidagi professional musiqa ijodkorlaridirlar. Bastakorlar xalq kuylariga tayangan xolda yangi asarlar yaratadilar. Muhim tomoni shundaki, bastakorlar o'z ijodlarini odatda dastlab nota yozuvlarida aks ettirmay, balki bevosita o'z ijrochilik san'atlari orqali ifoda etadilar. Demak, bastakorlar bir vaqtning o'zida ham musiqa yaratuvchi ijodkor, ham ijrochi san'atkorlardir. Xalqimizning sevimli san'atkorlari To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Komiljon jabborov, Muhammadjon Mirzayev, G'anijon Toshmatov, Nabijon Hasanov singari bastakorlar faoliyati fikrimizga misol bo'la oladi. Zero, ularning har biri mahoratli ijrochi bo'lishi bilan birga ulkan ijodkordirlar.

Cholg'u kuylari va qo'shiqchilik (ashula, katta ashula va hokazo) sohalari bastakorlik ijodining asosini tashkil etadi.

Kuy va qo'shiqning inson tabiatiga, uning yoshi xususiyatlariga chambarchas bog'liq ekanligi, shu xususiyatlari e'tiborga olinsa, musiqa va qo'shiqning inson ruhiyatiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishi e'tirof qilingan. Umuman, musiqa va she'r bir yaproqning ikki tomonidir. Ularni bir-birlaridan ayricha tasavvur etish mumkin emas. She'r musiqaga jon ato etadi. Musiqa esa she'riyatga qanot beradi.

O'zbek bastakorlari ashula va kuylar yaratish bilan birga kompozitorlik musiqasi janrlari – musiqali drama, syuita, opera va baletlar yaratishda ham kompozitorlar bilan hamkorlik qilmoqdalar.

Ovrupo san'atida shakllangan kompozitorlik ijodi esa opera, simfoniya, opetoriya, balet, sonata, kino musiqasi kabi ko'povozli musiqa turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bunday musiqa yaratuvchi ijodkor, odatda, konservatoryada maxsus ta'lim olgan bo'ladi va uni "kompozitor" deyishadi. Kompozitorlarning simfoniya, opera va boshqa asarlari nota yozuvlari orqali klavir yoki partituralarda o'z aksini topadi.

O'zbek musiqasi uchun kompozitorlik sohasi nisbatan yangi uslub bo'lib, u asosan inqilobdan keyingi davrda shakllana boshladi. T.Sodiqov, M.Ashrafiy, M.Burxonov, M.Leviyev, S.Yudakov, D.Zokirov, S.Jalil, I.Akbarov kabi kompozitorlar bu ijod ko'lamiga muhim hissa qo'shganlar.

Garchand o'zbek musiqasida kompozitorlik musiqa ijodi nisbatan yaqin o'tmishda vujudga kelgan bo'lsada, shunga qaramay bir qator diqqatga sazovor asarlar yaratildi. S.Yudakovning "Maysaraning ishi", M.Burhonovning "Alisher Navoiy", M.Ashrafiyning "Dilorom" operalari. M.Leviyevning "Suhayl va Mehri", A.Kozlovskiyning "Tanovar baletlari", M.Burhonov, I.Akbarov, B.Umidjonovlarning xor uchun yaratgan talaygina asarlari, M.Leviyevning musiqali dramalarga yaratgan dalkash musiqalari ("Dalada bayram", "Oltin ko'l", "Toshbolta oshiq"), M.Burxonov, S.Yudakov, S.Boboyev, M.Nasimovlar yaratgan vokal-cholg'u syuita va kantatalari, romans va qo'shiqlari, shuningdek M.Tojiyev, M.Maxmudovning qator simfoniylari, S.Jalilning ayrim cholg'u va vokal asarlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga bolalar va yoshlar uchun ham turli janrlarda ajoyib asarlar yaratildi.

Bu asarlarning ko'pchiligi o'zbek musiqasining oltin xazinasidan o'rin olmoqda, zeroki ularda yetuk musiqiy shakl va badiiy ifodalar vositasida xalqimizning o'tmish tarixi, erk va baxt uchun kurashi, orzu-umidlari yorqin aksini topgan.

Hozirda O'zbekiston kompozitorlari uyushmasida yuzdan ortiq kompozitorlar va bastakorlar barakali ijod etmoqdalar.

Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat a'zolari, ayniqsa bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-madaniy sifatlarini tarbiyalashning yangidan-yangi pedagogik imkoniyatlarini izlash zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida, islohotlarning ishtirokchisi, murakkab sharoitda ham o'ziga qulay yo'l topa oladigan ma'naviyatli mutaxassislarni yetishtirish zaruriyati bilan bog'liqdir. Demak, bugungi talabalar, ya'ni bo'lg'usi mutaxassislarning musiqiy madaniyatiga e'tibor qilmasdan turib, musiqa sohasida yetuk, barkamol insonni shakllantirish mumkin emas.

Shu jihatdan qaraganda, insonning musiqiy madaniyatini tarbiyalashda xalqning milliy, madaniy, tarixiy merosi katta ahamiyat kasb etishi, mustaqillik yillaridagi dastlabki tajribalardan ayon bo'lmoqda. Darhaqiqat, an'anaviy meros va mutafakkirlarning yoshlarda musiqiy tarbiyani amalga oshirishga xizmat qiladigan fikrlari va qarashlaridan pedagogikada unumli foydalanish maqsadida, talabalarning mavjud musiqiy madaniyati tushunchalari darajasidan kelib chiqqan holda, musiqa fanlari yo'nalishini bir qator yangi o'quv materiallari va ma'lumotlar bilan boyitish zaruriyati mavjudligini aniqlandi.

Zero, bugungi kunga qadar oliy ta'lim muassasalarida musiqa fanlari yo'nalishi o'quv dasturlariga kirmagan bir qator ma'lumotlar va manbalar talabalar musiqiy madaniyatini shakllantirishda boy pedagogik imkoniyatlarga ega degan, ilmiy faraz ilgari suriladi.

Asosiy vazifalardan biri talabalarda musiqiy-pedagogik kasbga qiziqishni orttirish, uning jamiyatda o'z o'rinini topishi va faoliyat ko'rsatishi uchun aniq tasavvurlarni shakllantirish, ularning umumpedagogik madaniyati va ma'naviy sifatlarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga psixologik va amaliy tayyorgarligini shakllantirishdan iborat.

Ma'naviy yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonni shakllantirish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan bo'lib, ma'naviy xislatlarga ega bo'lish muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligi, uni har bir insonda tarbiyalash birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Yuksak ma'naviyat uchun kurash murakkab jarayon. Zero, jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlamasdan, uning har bir a'zosida yuksak ma'naviy sifatlarini rivojlantirmasdan turib farovon va madaniy hayotni qurish mumkin emas.

Bunda musiqiy qadriyatlardan foydalanish - jamiyatdagi yoshlarning madaniy mezonlari va xulq-atvor me'yorlarini boshqarish hamda tartibga solishda muhim tizimning bo'g'ini sifatida yuzaga chiqadi.

Chunki dunyoqarash, bilim, e'tiqod, u yoki bu hatti-harakat uyg'un bo'lishi bilan birga, ayni paytda u insonda shakllanadi ham. Inson o'z g'oya, fikr va qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi. Shu sababli har bir inson, har bir jamoa faoliyatida musiqiy madaniyat yangi jamiyatni qurish va uni mustahkamlash yo'lida aniq ishlar bilan uyg'unlashishida birinchi o'rinda turmasa ham, ma'lum bir pog'onada yoshlar tarbiyasida o'z mavqeiga ega bo'lib hisoblanadi.

Oliy insoniy qadriyatlarni individual xulq-atvor sohasidan izlash kerak. Ta'kidlash joizki, yoshlarda oliy insoniy qadriyatlarni muntazam tarbiyalash muhim vazifa ekan, bunga ma'lum psixologik xulq-atvor me'yorlarini ular ongiga izchil tarzida singdirib borish orqali erishish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning hozirgi bosqichida jamiyatni yanada demokratlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda, bu jamiyatni ma'naviy-axloqiy takomillashtirish muammolarini har tomonlama aniq va yanada chuqur o'rganishga imkon yaratadi. Mustaqillik bizga keng ufqlarni ochdi, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish, o'z taqdirimizni belgilash, o'z hayotimiz va umumiy uyimizni milliy manfaat va qadriyatlarimiz, umum tomondan tan olingan demokratik tamoyillarga javob beradigan qilib obod etishga sharoit yaratildi.

Xalqimizning ildizlari qadim tarixga borib taqaladigan madaniy qadriyatlari azaldan umuminsoniy yuksak fikr va g'oyalar bilan yo'g'rilgan. Milliy madaniyat muammolari bilan shug'ullanadiganlarning bugungi vazifasi - ajdodlarimiz tomonidan asrlar osha to'plangan madaniy merosni yosh avlodning chinakam mulkiga aylantirish, bu bilan yoshlarni o'z Vataniga sodiq inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Bu manbalarda ilgari surilgan fikrlar, qarashlar bugungi kunda talabalarda – nafaqat musiqiy madaniyatga tegishli xislatlar, balki insonparvarlik, ezgulik, vatanparvarlik, samimiylik, saxiylik, sofdillik, go'zallikni his etish, nafsni tiyish, sadoqat, kamtarlik, andishalilik, xushmuomalalik, do'stlik, mehnatsevarlik, ziyraklik, shijoat, intizom, muloyimlik orqali ilmga ehtiyoj, salohiyat, kasbga mehr, hunar, iste'dod kabi kasbiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.
- Vafoev O. Ma'naviyat – taraqqiyot omili. Istiqol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1999. – 169 b.
- Zokirov I.I. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning nazariy-amaliy asoslari (kasb-hunar kollejlari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. avtoref. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2005. – 23 b.
- Tulenov J., G'afurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. – T.: Fan, 1995. – 176 b.
- Yusupov E. Inson kamolatining ma'naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – 98 b.
- Hasanboyev J.Yu., Turotova M., Hasanboyeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 111 b.
- Zokirova, S., & Xusanova, G. (2024). SOSIOLINGVOMADANIYATSHUNOSLIK KONTEKSTIDA BOLALAR O'YINLARI TUSHUNCHASI. Farg'ona davlat universiteti, (3), 547-547.
- Zaylobidinova, R. G. (2022). Comparative Study of the Names of Children's Games in Uzbek and English. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(8), 136-138.
- G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990. – 183 b.
- E.M.Fayzullaev. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.